


Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 933 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,3 % tashkil qildi.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (29,7 %), sanoat tarmog'ida (21,1 %), qurilishda tarmog'ida (13,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (11,4 %), yashash va ovqatlanishda (7,1%), tashish va saqlashda (3,8 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 19,4 birlikda, Yangibozor tumanida 16,6 birlikda, Yangiariq tumanida 15,2 birlikda, Xiva tumanida 14,6 birlikda, Xiva shahrida 13,0 birlikda va Urganch tumanida 12,0 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 9-11 birlik oralig'ida Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo'shko'pir tumanlarda aniqlandi.

Bog'ot tumanida 8,5 birlikda va Xazorasp tumanida 8,2 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.



2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,0 birlikda bo'lib, 2017 yilda 11,4 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,6 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 0,2 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 64,8 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 67,5%). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %



**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Xorazm viloyati	31,9	89,6	69,1
Urganch sh.	44,1	84,7	40,7
Xiva sh.	100,0	96,1	92,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	71,9	99,2	100,0
Gurlan	38,2	100,0	100,0
Qo'shko'pir	56,1	96,1	98,8
Urganch	76,6	89,8	78,2
Xazarasp	6,6	100,0	97,7
Xonqa	29,0	89,8	100,0
Xiva	100,0	67,4	99,3
Shovot	51,9	100,0	100,0
Yangiariq	35,8	100,0	100,0
Yangibozor	44,9	98,4	100,0

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Xiva shahri (100,0 %), Xiva (100,0 %), va Bog'ot (71,9 %) tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Gurlan (100,0 %), Xazarasp (100,0 %), Shovot (100,0 %) va Yangiariq (100,0 %) viloyatlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Bog'ot (100,0 %), Gurlan (100,0 %), Xonqa va Shovot (100,0 %), Yangiariq (100,0 %), Yangibozor (100,0 %) viloyatlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 790,4 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 31,9 %) yoki 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 103,0 %ni tashkil qildi;
- 687,8 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 60,2 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 114,5 %ni tashkil qildi;
- 813,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 89,7 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 102,1 % ni tashkil qildi;
- 1347,0 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 69,1 %), 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 101,4 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 72,9 % yoki 1764,7 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 100,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 25,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 63,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 1,3 mln. AQSh dollariga yoki 95,3 % ga kam;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,3 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 89,8 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 96,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (265,2 mlrd.so`m), Bo'got (105,9 mlrd.so`m) va Xazarasp (66,6 mlrd.so`m) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor (22,5 mlrd.so`m) va Xiva shahri (24,6 mlrd.so`m) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (399,1 mlrd.so'm), Xazorasp (246,4 mlrd.so'm), Urganch (200,6 mlrd.so'm), Gurlan (159,6 mlrd.so'm) va Xonqa (132,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (387,7 mlrd.so'm), Xazorasp (126,5 mlrd.so'm) va Urganch (111,3 mlrd.so'm), Gurlan (100,6 mlrd.so'm) va Xonqa (91,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 25 respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 0,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 66,6 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 37,5 % va 50,0 %, xizmatlar sohasida – 0,0 % va 100,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,0 % va 100,0 %, sanoatda – 0,0 % va 80,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 20,0 %, qurilishda – 33,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,0 %, xizmatlarda – 0,0 % va savdoda – 12,5 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 60,0 % sanoat korxonalari, 87,5 % – savdo, 50,0 % – xizmatlar, 100,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 33,3 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.